

O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILLARI

Shonazarova Dilnoza Dilshod qizi

Xalqaro Nordik Universiteti

Chet tillari kafedrası

d.shonazarova@nordicuniversity.org

ORCID ID: 0000-0003-1482-5479

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola O‘zbekistondagi ziyorat turizmi haqida ma’lumot beradi. Bundan tashqari, maqolada O‘zbekistondagi tashrif buyurish mumkin bo‘lgan ziyoratgohlar ro‘yxati ham keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, ziyorat turizmi, ziyoratgoh, qadamjo, missionerlik, masjid, madrasa, cherkov, infratuzilma, islom sivilizatsiyasi, O‘zbekiston musulmonlar idorasi, tur agentlik, maqbara, xonaqoh, turistik firma, sayyoh, rekonstruksiya, reklama, Wikipedia, transport, internet sayti, elektron dastur.

ANNOTATION

This article provides information about pilgrimage tourism in Uzbekistan. The list of possible pilgrimage sites in Uzbekistan also given in the article.

Key words: tourism, pilgrimage tourism, shrine, missionary, mosque, madrasa, church, infrastructure, Islamic civilization, The Muslim board of Uzbekistan, tour agency, mausoleum, khanaqah, travel agency, tourists, reconstruction, advertising, Wikipedia, transport, internet site, electronic app.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о паломническом туризме в Узбекистане. В статье также перечислены возможные места паломничества в Узбекистане.

Ключевые слова: туризм, паломнический туризм, святыня, миссионерство, мечеть, медресе, церковь, инфраструктура, исламская цивилизация, Управление мусульман Узбекистана, турфирма, мавзолей, гостиница, туристическая фирма, турист, реконструкция, реклама, Википедия, транспорт, интернет-сайт, электронное приложение.

KIRISH

Bugungi kunda turizm sohasi jadal o‘sib, rivojlanib bormoqda. Turizm haqida so‘z yuritishimizdan oldin, turizm o‘zi nima ekanligini batafsil bilib olishimiz lozim. Turizm jismoniy shaxsning doimiy istiqomat qilayotgan joyidan sog‘lomlashtirish, ma’rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda ma’lum muddatga boshqa joyga jo‘nab ketishidir. Turizm shaklan sayr (excursion), sarguzasht (journey, expedition) va piyoda yurish (walking) kabi turlarni o‘z ichiga olib, mazmunan esa insonlarning bilim doirasini kengaytirish, aql-idrokini rivojlantirish hamda

jismoniy barkamollikni tarbiyalash kabi eng muhim vazifalarni hal qilishni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda turizmning juda ko‘plab turlari mavjud. Masalan, sarguzasht turizmi, biznes turizmi, oziq-ovqat turizmi, madaniyat turizmi, ekoturizm, meditsina turizmi, ziyorat turizmi, sport turizmi, sog‘lom turmush tarzi turizmi, dengiz turizmi, tug‘ilish turizmi, fan turizmi, gen turizmi, urush turizmi, falokat turizmi va hattoki virtual turizm turlari ham mavjud. Ushbu turizm turlari orasida ziyorat turizmi o‘zining alohida o‘rni va ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Yurtimizda juda ko‘plab ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolar mavjud. Bu esa yurtimizda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun va O‘zbekistonni kelajakda turistlar eng ko‘p tashrif buyuradigan mamlakatlardan biriga aylantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ziyorat turizmi – ma’lum bir shaxs yoki guruhlarning sayohat qilish yoki missionerlik maqsadida muqaddas qadamjolar, masjidlar, madrasalar, cherkovlar yoki diniy ahamiyatga ega bo‘lgan hududlarga tashrif buyurishidir. Bugungi kunda yurtimizda turizm sohasida juda ko‘plab islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi “O‘zbekistonda sayohat qilishni yengillashtirish, turizm infratuzilmalarini rivojlantirish va yangi turizm obyektlarini tashkil etish”ga qaratilgan 2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. O‘zbekistonga tashrif buyurayotgan fuqarolarga viza tartibini soddalashtirish hamda maxsus ziyorat turizmi dasturlari taklif etiladigan davlatlar ro‘yxati shakllantirildi. Ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi, O‘zbekiston musulmonlari idorasi, “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi, “O‘zbekturizm” tashkiloti bilan hamkorlikda tashkiliy ishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6165-sonli farmoni qabul qilindi. Unga ko‘ra ziyorat turizmi madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish, ziyoratgohlar va allomalar haqida ularni yanada kengroq yoyish va dunyoga tanitish maqsadida filmlar tayyorlash, chiptalar, aviareyslar, temiryo‘l qatnovlari va mehmonxona xizmatlariga o‘zgartirishlar kiritish va bir qator boshqa vazifalar qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi din ishlari bo‘yicha qo‘mitada Ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘limi ochildi. Bo‘limning asosiy maqsadi xorijiy sayyohlarni ziyorat turizmi doirasida tashriflarini olib borishdir. Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, 2021-yil 3-fevraldagi “Harakatlar strategiyasi” ning PF-6155-son farmoniga muvofiq O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qilish uchun xarajatlarning bir qismini qaytarish tartibi joriy qilindi. Bu esa vatandoshlarimizning O‘zbekiston hududida yanada qulayroq sayohat qilish va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng zamin yaratdi. Yana bir ziyorat turizmi sohasidagi katta yangiliklardan biri, 2019-yili Buxoroda “Birinci xalqaro ziyorat turizmi forumi” bo‘lib o‘tdi va forum doirasida Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi huzuridagi Milliy PR-markaz hamda Malayziya tur agentliklari assotsiatsiyasi o‘rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi. Bundan tashqari har yili O‘zbekistonda Ziyorat turizmi haftaligi bo‘lib o‘tishi ham e’lon qilindi. O‘zbekiston hududida juda ko‘p ziyoratgohlar: masjid, maqbara, madrasa, xonaqohlar mavjud. Quyidagi jadvalda ziyoratchilar tashrif buyurishi mumkin bo‘lgan ziyoratgohlar ro‘yxati keltirilgan:

TOSHKENT	<ol style="list-style-type: none"> 1. Shayx Zayniddin buva masjidi 2. Shayx Xovandi Taxur maqbarasi 3. Yunusxon maqbarasi 4. Muhammad Qaffol Shoshiy maqbarasi 5. Baroqxon madrasasi
----------	---

	6. Xo‘ja Alambardor maqbarasi 7. Tillo shayx masjidi 8. Xo‘ja Ahror Valiy majidi 9. Anvar bibi maqbarasi 10. O‘zbekiston musulmonlar idorasi.
BUXORO	1. Ismoil Somoniy maqbarasi 2. Mag‘oki Attor masjidi 3. Namozgoh masjidi 4. Chashmayi Ayyub maqbarasi 5. Bo‘yonqulixon maqbarasi 6. Ulug‘bek maqbarasi 7. Mir Arab madrasasi 8. Baland masjid 9. Xo‘ja Zayniddin masjidi 10. Ko‘kaldosh madrasasi 11. Nodir Devonbegi xonaqohi 12. Abdulazizxon madrasasi 13. Abduxoliq G‘ijduvoni maqbarasi
SAMARQAND	1. Xo‘ja Doniyor maqbarasi 2. Hazrati xizr masjidi 3. Amir Temur maqbarasi 4. Dovud alayhissalom ziyoratgohi 5. Imom Moturidiy maqbarasi
XORAZM	1. Juma masjidi 2. Shayx Muxtor Valiy maqbarasi 3. Said Alovuddin maqbarasi 4. Sheg‘ozixon madrasasi 5. Olloqulixon madrasasi 6. Muhammad Aminxon madrasasi 7. Muhammad Rahimxon madrasasi 8. Islomxo‘ja madrasasi va minorasi 9. Yusuf Hamadoni maqbarasi
NAMANGAN	1. Xo‘ja Amin maqbarasi 2. Mulla Bozor Oxund maqbarasi 3. Mulla Qirg‘iz madrasasi
ANDIJON	1. Ponsod masjidi 2. Devonaboy jome‘ masjidi 3. Yunus Payg‘ambar ota ziyoratgohi 4. Otaqo‘zi madrasasi 5. Bibi Seshanba ziyoratgohi 6. Fozil ota ziyoratgohi 7. Qutayba ibn Muslim maqbarasi
FARG‘ONA	1. Burxoniddin Marg‘inoniy maqbarasi
QASHQADARYO	1. Hazrati Imom maqbarasi 2. Gumbazi Sayyidon maqbarasi

SURXONDARYO	1. Abu Iso at-Termiziy maqbarasi
NAVOIY	1. Mirsaid Bahrom maqbarasi 2. Qosim Shayx Azizon maqbarasi

Quyidagi jadvaldan ko‘rinib turganingizdek, Toshkent, Buxoro, Samarqand va Xorazm hududlari turistlar eng ko‘p tashrif buyuradigan markazlardan hisoblanadi. Shu o‘rinda bir narsani ta’kidlab o‘tish kerakki, ba’zi bir hududlar ziyoratgohlarga boy bo‘lishiga qaramay, birorta ham turistik firmalarga ega emas. Bunga Xorazm yaqqol misol bo‘la oladi. Bunday hududlarga tashrif buyurish uchun sayyohlar Toshkent yoki boshqa hudud firmalaridan foydalanishadi. Bu holatda esa davlatimizni dunyodagi eng ko‘p turistlar tashrif buyuradigan hududga aylantirish qiyin-ku? Shunday davlatlar borki, muqaddas qadamjolari juda kam bo‘lishiga qaramay eng ko‘p turistlar tashrif buyuradigan hududlarga hisoblanadi, nega? Chunki, ushbu davlatlar o‘zlarida mavjud yodgorliklarni yaxshi reklama qilishadi. Bizning yurtimizda ham turizm, jumladan, ziyorat turizm taraqqiy etishi, gullab-yashnashi uchun quyidagi omillarga e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiq bo‘lardi:

Ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida:

- Turistlar tashrif buyuradigan ziyoratgohlarda xizmat ko‘rsatish sifatini kuchaytirish hamda yaroqsiz holga kelgan, ta’mir talab hududlarni qayta rekonstruksiya qilish;

- Yurtimizda shunday ziyoratgohlar borki, ular haqida kam ma’lumotlar mavjud va aynan o‘sha hududda yashovchi mahalliy aholigagina ma’lum. Ushbu hududlarni ham, yurtimizdagi boshqa mashhur ziyoratgohlar haqidagi qisqacha ma’lumotlarni ham turli tillardagi broshyuralar va kitobchalar shaklida chop etish orqali reklamani kuchaytirish, chet elda ko‘rgazmalar tashkil etish;

- Hozirgi kunda ingliz tili eng ommaviy jahon tillaridan biri hisoblanadi, shu sababli, eng ko‘p ma’lumot manbai sifatida foydalaniladigan internet tarmoqlarida, masalan, Wikipedia tarmog‘ida ingliz va boshqa jahon tillarida ziyoratgohlarimiz haqida ma’lumotlar berib o‘tish, chunki faqatgina o‘zbek tilida berilgan ma’lumotlar ichki turizmni rivojlantirishgagina xizmat qiladi, xolos;

- Ko‘pchilik turistlar biror hududga ziyorat uchun bormoqchi bo‘lganda ularda ushbu hududga qanday borish, qancha miqdordagi mablag‘ zarurligini bilishda yoki mehmonxona bilan bog‘liq ko‘plab muammolar kuzatiladi. Ushbu holatlarni bartaraf etish maqsadida ziyoratgohlarning xaritasini, ushbu hududga eltuvchi transport turlarni, taxminan qancha miqdorda pul sarflanishi va ushbu hududda mavjud xizmat ko‘rsatuvchi mehmonxonalar ro‘yxatini o‘zida aks ettiruvchi elektron dasturlar yoki qo‘llanmalar ishlab chiqish;

- Eng ko‘p aholi foydalanadigan mahalliy va jahon internet saytlarida mahsulot reklamalarini birmuncha qisqartirgan holda, ziyoratgohlar ro‘yxatini ham ilova qilib o‘tish;

- Turistlarga yaxshi xizmat ko‘rsatish maqsadida esa maxsus gidlar tayyorlaydigan markazlar yoki universitetlarda maxsus fakultetlar ochish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yoki mutaxassisligi turizmga yaqin bo‘lgan sohalarda turizmga oid fanlarni kiritish.

XULOSA

Bundan tashqari, ichki turizmni rivojlantirish maqsadida, mahalliy telekanallarda ziyoratgohlarimiz haqidagi ma’lumotlarni ham reklama roligi shaklida efirga uzatish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Bir kunda qanchadan qancha insonlar televizor tomosha qiladi, ushbu reklamaga

ko‘zi tushgan insonni bizning ajoyib va betakror ziyoratgohlarimizga bir bora bo‘lsa ham tashrif buyurish hissi chulg‘ab olsa ajab emas. Shukrki, bugungi kunda ushbu yo‘lda bir-qator qarorlar qabul qilindi va sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbekistonda sayohat qilishni yengillashtirish, turizm infratuzilmalarini rivojlantirish va yangi turizm obyektlarini tashkil etish” haqidagi qaror, 2017-yil 16-avgust
2. Azizova, D. (2024). THE ROLE OF MULTIMEDIA IN SHAPING ELT PRACTICES: INSIGHTS AND CHALLENGES FROM MALAYSIA TO UZBEKISTAN. *Nordic_Press*, 3(0003).
3. Goeldner., Charlese. Tourism. –2014.
4. Khakimkhodjaev, N. (2024). TILSHUNOSLIKDA TONI MORRISON ASARLARINING TAHLILI. *Nordic_Press*, 3(0003).
5. Kulmamatov, O. (2024). Uzbek askia—an expression of wit and wisdom. *Nordic_Press*, 3(0003).
6. Reisinger. International tourism. – Y, 2015.
7. Otaboyev, U. (2024). The role of international organizations and education in the development of tourism potential of countries. *Nordic_Press*, 2(0002).
8. Shonazarova, D. (2024). ChatGPT and its challenges working with idioms and writing systems in Uzbek language. *Nordic_Press*, 3(0003).
9. Shonazarova, D. (2024). Yuridik matnlar tarjimasi jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar va ularning yechimi. *Nordic_Press*, 3(0003).
10. Shonazarova, D. (2024). Simultaneous interpretation and required competencies for choosing the profession. *Nordic_Press*, 3(0003).
11. Shonazarova, D. (2024). SINXRON TARJIMA VA UNING KELIB CHIQISHI BO‘YICHA NAZARIYALAR. *Nordic_Press*, 3(0003).
12. Shonazarova, D. (2024). SINXRON TARJIMON KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI. *Nordic_Press*, 3(0003).
13. Shonazarova, D. SINXRON TARJIMA AMALIYOTI VA NAZARIYASI. *UZBEKISTAN*, 43.
14. Tulenova, X., Xoldarov, T. Turizm. –Toshkent: Iqtisodiyot-moliya, 2013.
15. Yusupova, M. (2024). LEVERAGING ENGLISH TERMINOLOGICAL DICTIONARIES TO AUGMENT COMMUNICATION SKILLS IN MUSIC EDUCATION STUDENTS. *Молодые ученые*, 2(12), 140-141
16. Калюнова, З. А. (2023). ИННОВАЦИОННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА. *Science and innovation*, 2(Special Issue 14), 449-452.
17. Хамраходжаева, С. Ж., Нарбекова, З. Т., Режапова, Н. Б., & Костина, О. В. (2022). ВАЖНАЯ РОЛЬ УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В НЕЯЗЫКОВЫХ ВУЗАХ. *Архив научных исследований*, 2(1).

18. Chernova, N. (2024). Фразеологические единицы выражающие, эмоции и чувства человека. *Nordic_Press*, 2(0002).
19. <https://science-education.ru/e...>
20. <https://vacayholics.com/types-of-tourism>
21. <https://religions.uz/uz/pages/...>;
22. <https://www.gazeta.uz/oz/2017/08/17/turizm/>
23. www.lex.uz